

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Fir'avn
bilan
xayrlashuv



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Janie Forest; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Fir'avn g'azabda edi. Chunki Xudo Muso orqali Isroil xalqini qullikdan ozod qilmoqchi edi. Fir'avn esa ruxsat bermasdi.






Fir'avn "Isroil xalqini yanada ko'proq ishlatinglar!" - deb buyruq berdi.



Endi ular o'zlari somon yig'ib, g'isht yasashlari kerak edi. Avvalgidek boshqaruvchilar ularga somon olib kelmaydigan bo'ldi.



Yetarlicha somon
yig'olmay, keraklicha
g'isht yasolmaganlarni
esa boshqaruvchilar
savlashardi.





Isroil xalqi bu uchun Muso va Horunni ayblardi. Shunda Muso: "Parvardigor, nega xalqingni ozod qilmayapsan", -deb ibodat qildi. Xudovand unga

shunday deb javob berdi: "Men Xudoman, Men ularni olib chiqaman!"



So'ngra Xudo
Muso va Horunni
yana fir'avnni
yoniga yubordi.
Fir'avn ulardan
biror alomat
soradi.

Shunda Horun
hassasini erga
urgandi, hassa
ilonga aylanib
qoldi.





"Saroy
sehrgarlarini
chaqiringlar!"
-dedi fir'avn.
Misrlik sehrgarlar
hassalarini erga
tashlaganda, ular
ham ilonga aylanib
qoldi.





Lekin Horunni
ilonga aylangan
hassasi qolganlarni
yutib yubordi.
Ammo baribir
fir'avn xalqni
ozod qilishga
ruxsat bermadi.



Keying kuni saharda Muso va Horun fir'avnni daryo boyida uchratishdi. Horun hassasini daryoga tekkizgandi, uning suvi qonga aylandi. Undagi baliqlar halok bo'ldi,

suv ichishga yaroqsiz bo'lib qoldi.



Lekin fir'avn yuragini tosh qilib oldi. U baribir
Isroil xalqini qo'yib yuborishga ruxsat bermadi.





Muso yana bir
bor fir'avnga
Xudoni xaqini
ozod qil, deb
aytdi. Ammo u
rozi bo'lmadi.
Xudo yana
alomat
yubordi.





U Misrni
qurbaqalar
bilan to'ldirib
tashladi. Har
bir xonadon,
undagi xonalar,
hatto o'choqlar
ham qurbaqaga
to'lib ketdi.






Shunda
fir'avn shunday
dedi: "Iltimos
ibodat qiling,
toki qurbaqalar
yo'qolsin! Keyin
Isroil xaqiga
ruxsat beraman!"
Ammo qurbaqalar
yo'q bo'lgach,
fir'avn fikridan
qaytdi.



So'ng Xudo u erni so'nalar bilan to'ldirdi. Odamlar va har qanday jonzot ulardan zarar ko'rdi. Baribir fir'avn rozi bo'lmadi.






So'ng Xudo pashshalarni yubordi. Keyin kasalliklar yubordi, Misr xalqi bundan azob chekdi. Ammo fir'avn shunda ham rozi bo'lmadi.



Kasalliklardan
keyin Xudo
qurt-qumursqalarni
yubordi. Ular
butun o'simliklar
eb bitirishdi.





So'ng Xudo uch
kun davom etgan
qorong'ulikni
yubordi. Lekin
bag'ritosh
fir'avn Isroil
xalqini qo'yib
yubormadi.



Shunda Xudovand:

“Men yana
bitta alomat
yuboraman.

Yarim tunda
hammani to'ng'ich
bolasi halok
bo'ladi, hatto
hayvonlarning
ham,” -dedi.

Xudo Isroil
xalqiga:

“Eshiklaringizga
qo'zi qonini surting, sunda sizlarni
o'g'lillaringizga tegmayman,” -dedi.






Yarim tunda Misrda
buyuk yig'i eshitildi.
Har bir uydan bitta
bola halok
bo'lgandi.





Fir'avn Musoga:
"Bu erdan ketinglar!"
-dedi. Isroil xaqli
tez orada Misrdan
chiqib ketdi.





Xudo Musoga bu kunni
udum qilib olishni amr etdi. Chunki Xudoning
farishtasi Isroil to'ng'ichlariga tegmadi.





430 yillik qullikdan keyin
Isroil xalqi ozod bo'ldi. Xudo
kunduzi bulutli, kechasi esa
olovli ustun shaklida
ular bilan yurdi.





Ammo fir'avn
yana Xudoni
ishlarini unutib
qo'ydi. U yana
fikrini o'zgartirdi.
U o'z qo'shini bilan
birga Isroil xalqi
ortidan quvib bordi.
Ularni daryo va qir
o'rtasida qamal
qilib oldi.



Muso odamlarga: "Xudo siz uchun kurashadi!" -dedi. So'ng daryo bo'yiga borib, qulochini ochdi.



Shunda mo'jiza
ro'y berdi. Xudo
daryo o'rtasidan
yo'l ochdi.
Odamlar uning
o'rtasidan
xavfsiz o'tib
olishdi.



Ularning orqasidan fir'avn qo'shini bilan quvib bordi. Lekin Xudo daryoni yopib qo'ydi. Barcha Misrliklar suvga g'arq bo'lishdi. Shunda fir'avn Isroil Xudosi haqiqatdan ham borliq ustidan Hokim ekanini bildi.



Fir'avn bilan xayrlashuv

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Chiqish 4-15

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

